

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93


14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xujanov Zafar,
Sh.Rashdov nomidagi Samarqand
davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: xzafar1229@gmail.com

KAMBAG'ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800152>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kambag'allikni paydo bo'lishiga olib keladigan bir nechta iqtisodiy hamda ijtimoiy sabablar, jumladan, individualistik, strukturaviy, ishsizlik kabi yondashuvlar o'rganilib tahlil qilingan. Kambag'allik ijtimoiy, siyosiy tuzilishi va xususiyatlaridan qat'i nazar, har qanday jamiyatga xos, ko'p omillar ta'sirida paydo bo'ladigan hamda turli nuqtai nazardan o'rganish mumkin bo'lgan murakkab hodisadir. Shu sababdan kambag'allik tushunchasini bir necha omillarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida batafsil tahlil qilish zarurati tug'iladi. Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi to'g'ri tanlash esa, bevosita uni paydo bo'lish sabablari va omillarni to'g'ri baholashga bog'liq. Maqolada kambag'allik sabablari, uni odamlarga yoki oilalarga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinib, kambag'allikka qarshi kurashning samarali vositalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik sabablar, individualistik, strukturaviy, ishsizlik, ijtimoiy himoya, aholi bandli, daromad.

Хужанов Зафар,
Преподаватель Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
e-mail: xzafar1229@gmail.com

ПРИЧИНЫ БЕДНОСТИ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЕЕ СОКРАЩЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются несколько экономических и социальных причин бедности, включая индивидуалистический, структурный подходы и подходы к безработице. Бедность – сложное явление, характерное для любого общества, независимо от его социально-политической структуры и особенностей, возникающее под влиянием множества факторов и поддающееся изучению с разных точек зрения. По этой причине необходимо детально проанализировать понятие бедности как социально-экономического явления, сочетающего в себе несколько факторов. Выбор правильной стратегии сокращения бедности напрямую зависит от правильной оценки причин и факторов ее возникновения. В статье анализируются причины бедности, ее влияние на человека или семью, а также раскрываются эффективные средства борьбы с бедностью.

Ключевые слова: причины бедности, индивидуалистические, структурные, безработица, социальная защита, занятость населения, доходы.

Khuzhanov Zafar,
Teacher at Samarkand State
University named after Sh. Rashidov
e-mail: xzafar1229@gmail.com

CAUSES OF POVERTY AND FACTORS AFFECTING ITS REDUCTION

ABSTRACT

In this article, several economic and social causes of poverty, including individualistic, structural, and unemployment approaches, are analyzed. Poverty is a complex phenomenon that is characteristic of any society, regardless of its social and political structure and characteristics, which appears under the influence of many factors and can be studied from different perspectives. For this reason, it is necessary to analyze in detail the concept of poverty as a socio-economic phenomenon that combines several factors. Choosing the right strategy for poverty reduction directly depends on the correct assessment of the causes and factors of its occurrence. The article analyzes the causes of poverty, its impact on people or families, and reveals effective means of combating poverty.

Key words: causes of poverty, individualistic, structural, unemployment, social protection, employed population, income.

KIRISH

Kambag'allik paydo bo'lishiga olib keladigan sabablarini aniqlash, uni monitoring qilish, baholash, kambag'allarni qisqartirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda bu dasturlarni samarali amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Dunyo hamjamiyati tomonidan ko'rilayotgan choralar natijasida ochlikdan azob chekayotgan odamlar salmog'i sezilarli daralada kamaydi, biroq kambag'allikning kamayish sur'atlari hali yetarli darajada emas. Jahon banki tomonidan 2023-yil oktyabr oyida kambag'allikning global darajasi kunlik 2,15 dollarlik chegara bilan qayta ko'rib chiqilganda dunyo bo'yicha kambag'allik darajasi 8,5 foizni tashkil etdi. Hozirda dunyoda 659 million kishi ushbu chegaradan pastda, kambag'allikda yashaydi [1].

Kambag'allikni qisqartirish masalasi barcha davrlar uchun dorzarb masalalardan biri sifatida, mamlakatimizni bugungi islohotlarning ham asosini tashkil etadi. Mamlakatimiz Peridenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Kambag'allik darajasini qisqartirish ko'p jihatdan daromad taqsimlanishidagi tafovutlarni kamaytirish, ijtimoiy tabaqalashuvning xavfsizlik me'yorlaridan yuqori bo'lmasligini ta'minlash, muhtoj oilalarni o'rta daromadlilar qatoriga o'tkazish bilan bog'liqdir" [2].

Kambag'allikni yumshatish iqtisodiy o'sish, kam ta'minlangan odamlarni ish bilan ta'minlash, infratuzilma qurilishi va davlat xizmatlari turini ko'paytirish, shuningdek, barcha hududlarda ayniqsa chekka hududlarda ta'lim va tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash hamda sifat darajasini ko'tarishga katta e'tibor berishni talab qiladi. Bundan tashqari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xududiy va mahalliy loyihalar ham kambag'allikni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega.

Kambag'allikni oilalarga ta'sirini tushunish uchun ularni turmush darajasini baholashda turli ko'rsatkich va usullardan foydalanishni talab qiladi. "Bunday usullar kambag'allar duch keladigan muammolarni ob'ektiv yoki sub'ektiv nuqtai nazardan aks ettirishi mumkin, ammo har qanday holatda ham bu urinish kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishni to'ldirish uchun ishlatilishi mumkin" [3, – P.74].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida kambag'allikni paydo bo'lishi sabablarini aniqlashda qo'llaniladigan turli omillar ko'rib chiqilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari, kambag'allik baholash va uni

yumshatishdagi ahamiyati nazariy, ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq qilingan. Shuningdek, muammoni o'rganishda dialektik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda taqqoslash, anketa so'rovi usullaridan foydalanildi.

Kambag'allikning sabablari kambag'allikni kelib chiqishini tushuntirish hamda odamlar kambag'al bo'lib qolishi mumkin bo'lgan holatlarga nisbatan qo'llaniladi. Kambag'allik sabablarini aniqlash kimlar kambag'al ekanligini, qancha odam kambag'alligini, nima uchun kambag'allikka tushib qolganini aniqlashga yordam beridi va bu izlanishlar kambag'allikni bartaraf etishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, kambag'allik sabablarini aniqlash uni qisqartirish uchun samarali dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kambag'allikni kelib chiqish sabablarini 1972-yilda J.R.Figin tizimli ravishda o'rganib chiqib, kambag'allikni kelib chiqish sabablarini 11 ta potensial ro'yxatini ishlab chiqadi va ularni uchta katta guruhga ajratadi. Birinchi guruhga kambag'allik uchun javobgarlikni kambag'allarning o'ziga yuklanadigan individualistik; ikkinchi guruhga tashqi ijtimoiy va iqtisodiy omillarga yo'naltirilgan strukturaviy (tarkibiy); uchunchi guruhga shaxs va jamiyatning nazorati ostida bo'lmagan omillar (kasallik, baxtsiz xodisa va xakoza)ni hisobga olgan fatalistik (taqdir) omillarni kiritadi [4, – P.101-105]. Van Orshot va R.Xalman uning qarashlarini rivojlantirib kambag'allik sabablarini to'rtta turga ajratadi va Figin tasnifiga to'rtinchi omil "ijtimoiy-madaniy omillar"ni qo'shish kerakligini ta'kidlaydi [5, – P.1-5].

ASOSIY QISM

Kambag'allik sabablarini tushuntirishda siyosiy-iqtisodiy omillar oilaning tuzilishi va daromadini hisobga olish muhim hisoblanadi. G.Jordanning fikricha kambag'allikka olib keladigan xatti-harakatlar va madaniy cheklovlar to'plami jamiyatdagi tarkibiy shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liq va ularni boshqaradi [6, –P.18]. Kambag'allikni paydo bo'lishiga oid turlicha qarashlar uni qisqartirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatdi. M.Rank ta'kidlaganidek, kambag'allikning asl sabablarini tushunish kambag'allik sabablari haqidagi nuqtai nazarimizni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. M.Rankning kambag'allik sabablari haqidagi qarashlarini uchta asosiy omil ostida birlashtirish mumkin: individual omillar; madaniy va qo'shniqlik omillari; tarkibiy omillar [7, – P.882].

Individualistik yondashuvda kambag'allikni kelib chiqishi xulq-atvor omillariga e'tibor qaratib, odamlarni noto'g'ri xatti-harakati, betartib turmush tarzi (giyohvandlik va alkogolga moyillik, dangasalik, zaiflik) kabi ichki omillar natijasida yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kambag'allik sabablari sifatida submadaniyat yoki ishsizlik, irqiy tafovutlar, milliy ozchiliklar o'rtasidagi nomutanosib muammoli xatti-harakatlardan kelib chiqadi deb hisoblashadi.

Strukturaviy yondashuvda kambag'allikning kelib chiqishini tizimli sabablarga hamda tashqi omillarga e'tibor qaratadi. Tengsizlik, ish haqining pastligi, inson kapitaliga investitsiya kiritishning cheklanganligi oilalar uchun kambag'allikdan qutulishni qiyinlashtiradi. Strukturaviy nazariyaga ko'ra, demografik jarayonlar va mehnat bozori tuzilishi kambag'allikni kelib chiqishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, odamlarning mulk, ta'lim yoki turli xizmatlardan foydalanish huquqi cheklanganda uning iqtisodiy ahvoli yomonlashib kambag'allik tuzog'iga tushib qolish ehtimoli oshadi. S.Bessining fikriga ko'ra, ijtimoiy chetlashish (istisno) tushunchasi aholining ko'pchiligi sezilarli iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lgan jamiyat ichidagi ma'lum bir guruhning chetlashishi begonalashishidir [8]. Demak, ijtimoiy chetlashish (istisno) nazariyasi boshqa nazariyalardan farqli o'laroq, kambag'allik muammosini tushuntirib, uning shakllari, sabablari va oqibatlarini kengroq qamrab oladi.

Fatalistik (taqdir) yondashuvda kambag'allikning kelib chiqish sabablari shaxsga, jamiyat va tizimga bog'liq bo'lmagan omillar, jumladan, kasallik, nogironlik yoki baxtsiz hodisa qurboni bo'lish bilan izohlanadi. Kambag'allik sabablarini tushuntirishda siyosiy-iqtisodiy omillar, jumladan oilaning tuzilish, tarkibi va daromadini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Kambag'allikning sabablari turli xududlarda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq, bu sabablar orasida umumiylik mavjud. Bu sabablarni tushunishda iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy, geografik, ekologik

darajadagi ayrim omillar hisobga olinishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyatda kambag'allikning paydo bo'lishi sabablarni quyidagicha tavsiflash mumkin (1-rasm):

1-rasm. Kambag'allik kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillar.

Kambag'allik kelib chiqish sabablari haqidagi keng tarqalgan nazariyalarda individualistik va strukturaviy qarashlar ustunlik qiladi [9, – P.23-40]. R.Lister ta'kidlashicha, kambag'allik odatda individualistik yoki tarkibiy sabablari tufayli kelib chiqadi. Bunda individualistik qarashlarda odamlar o'zlarining sharoitlari uchun o'zlari ayblanadi, tarkibiy nuqtai nazarda esa kambag'allikka shaxsning nazoratida bo'lmagan muammolar, erkinliklar va resurslarning yetishmasligi yoki teng taqsimlanmaganligi sabab qilib ko'rsatilib, yetarlicha sharoit yaratmaganligi uchun tizimni ayblaydi. Demak, kambag'allikni paydo bo'lishi sabablarini tushuntirish bir nechta omillarni o'rganib natijalarning taqqoslashni talab qiladi.

Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi, iqtisodiy va siyosiy erkinlikning cheklanishi tabaqalanishga olib keladi hamda kambag'allikning paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Sotsiologlarining yondashuvlarida kambag'allikning paydo bo'lishi ildizi sifatida jinslar o'rtasidagi tengsizlik, inson kapitalini yetishmasligi, cheklangan imtiyozlar va irqchilik kabi omillar yetakchi o'rin tutadi. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, bu omillarning barchasi insonni imkoniyatlarni kamaytiradi va tuzimga bo'lgan ishonchsizlikni oshiradi.

Mamlakatimizda ham kambag'allik muammosi mavjud bo'lib, Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda kambag'allik darajasi 14,1 foizni tashkil qilgan. Statistika agentligi tomonida o'tkazilgan 16 mingta uy xo'jaliklari kuzatuvlari natijalariga asosan, 2023-yil yakunida mamlakatimizda kambag'allik darajasi o'tgan yilga nisbatan 3,1 foizga qisqarib, 11,0 foizga tashkil qildi [10]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda kambag'allikning paydo bo'lish sabab va omillari turlicha ekanligi uni qisqartirishni yagona dastur orqari amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Bu esa kambag'allikni qisqartirishda uning kelib chiqish sabablari, ko'lamini inobatga olinib turlicha dasturlarni amalga oshirishni taqazo qiladi.

Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya va aholi bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy himoya tizimi orqali doimiy daromadga ega bo'lmaganlarni moddiy jihatdan ta'minlashga e'tibor qaratilishi nochor aholi qatlamlarini kambag'allikdan xalos qilishi mumkin. Ikkinchidan, puxta ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya tizimi inson resurslarini rivojlantirishi ayniqsa, zaif, kambag'al odamlarni xavf-hatarlarga dosh berish va yaxshi sharoitga erishishi uchun qobiliyatini kuchaytirishi hamda bu orqali bevosita iqtisodiy o'sishga erishishilishi mumkin. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy siyosatning samarasi turli ehtiyojmand guruhlarning ijtimoiy himoyaga "haqiqatan ham munosib" deb baholash darajasiga bog'liq. "Qariyalar, nogironlar yoki muhtoj oilalar farzandlari kabi ba'zi guruhlar ijtimoiy yordamning asosiy ob'ekti sifatida keng e'tirof etilsa, ishsizlar va immigrantlar kabi boshqa guruhlar odatda kamroq qo'llab-quvvatlanadi" [11, – P. 68-83].

Mamlakatimizda ham ijtimoiy himoya tizimini orqali zaif, yordamga muxtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, aholining himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar 2023-yilda jami byudjeti xarajatlarining 50,4 foizini tashkil etdi. Ijtimoiy xarajatlarning aksariyat qismini ta'lim xarajatlar (44,9%) ajratilgan bo'lib, 2022-yilda xarajatlarga nisbatan deyarli 14%ga ortiqni tashkil etadi. Ijtimoiy xarajatlarning 22%i sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun ajratilgan.[12, – B.16] Bu ikkala soha kambag'allikni qisqartirishda muhim bo'g'in hisoblanadi.

Ishsizlik kambag'allikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Ishsizlik va kambag'allik o'rtasidagi yana bir bog'liqlik mehnat unumdorligining pastligi shaklida namoyon bo'ladi. Bunday holda, aholining ma'lum bir qismi ish bilan band bo'lsa ham, ishlab topadigan daromadi minimal ehtiyojlarini qoplashga yetmaydi. O'z navbatida, daromad pasligi inson kapitalini rivojlantirishga kamroq sarmoya kiritilishiga olib keladi, natijada past mahsuldorlik kambag'allikni surunkali sikliga aylanishiga sabab bo'ladi.

Ehtiyojmand aholini ish bilan bandlik holati, oilaning bir oylik umumiy daromadi va uning manbalari hamda bu daromadlarning oilani barcha ehtiyoj qondirishga yetish-yetmasligini aniqlash

maqsadida o'kazilgan so'rovnomaga respondentlarning bergan javoblari tahlil qilinganda quyidagi natijalar olindi: ishtirokchilarning 65,9%i ish bilan bandligini, 25,6%i "xozirda ishsizligini", 6,7%i uy bekasiman (ishsiz), qolgan 1,8%i nafaqada ekanligini bildirishgan. Ish bilan bandlarning 47,6% rasman ish joyiga ega, 4,3%i hususiy sektorda ishlashini, 7,3% yollanma (kunlik) ishchi sifatida ishlashini, 4,3% shaxsiy tomarqasida bandligini, 2,4% tadbirkorlik bilan shug'ullanishini bildirishgan. Berilgan javoblardan ko'rinib turibdiki so'rovnomada qatnashganlarning 25,6%i ishsiz, uy bekalari (6,7%)ni qo'shib xisoblasak ishsizlik darajasi 32,3%ni tashkil etadi.

So'rovnomada davomida odamlarning kambag'allikka tushib qolishi sabablari so'ralganda respondentlarning uchdan bir qismi 34,8%i "ishsizlik va ishlash uchun yetarli imkoniyat yo'qligi"ni, 33,5%i "odamlarning kambag'allik hayotiga rozi bo'lish"ni kambag'allikni asosiy sababi sifatida ko'rsatishgan, ishtirokchilarning 11,0%i "giyohvand moddalar iste'moli va ichkilikbozlik kabi salbiy illatlar", 12,2%i "dankasalik va loqaydlik", 3,7%i "tengsizlik va adolasizlik", 3,0%i "nogironlik yoki kasallik", qolgan 1,9%i "yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaslik, ta'lim olish imkoniyatining yo'qligi" sababli kambag'allikka tushib qoladi degan javoblarni berishgan.

Kam daromadlikdan kelib chiqadigan kambag'allik odatda tabiatan doimiy bo'lib, odamni undan olib chiqish uchun tashqi aralashuvni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan usullaridan biri bu inson kapitaliga sarmoya kiritish, ya'ni ishchi kuchini o'qitish va malakasini oshirishdir. Yaxshi malaka darajasi insonning ish bilan ta'minlanishini va uning mahsuldorligini oshiradi, bu esa kambag'allik muammosini xal etishda muhim omildir.

XULOSA

Mamlakatimizda ham kambag'allik muammosi iqtisodiy, ijtimoiy, geografik, insoniy, gender va boshqa omillar sababli paydo bo'ladi. Bu xilma-xil xususiyatlari kambag'allikni qisqartirishning turli strategiyalarini qo'llashni talab qiladi. Bizningcha kambag'allikni kamaytirish bo'yicha davlat aralashuvni quyidagi darajada amalga oshirilishi kerak. Inson kapitalini rivojlantirish, ishsizlikni oldini olish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish va bandlikni ta'minlash orqari aholini real daromadini oshirish, mehnat sharoitini yaxshilash, ta'lim tizimini rag'batlantirish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar sohasini kengaytirish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va boshqalar.

Masalan, odam ish joydan ajralganda yoki ishsiz bo'lganda chetlashish yuzaga keladi. Shaxs ish o'rniga ega bo'lmasa yoki ishdan chetlashtilsa u domiy daromad manбайдan mahrum bo'ladi. Daromadning yo'qligi yoki etarli daraja emasligi kambag'allikni bosh omilidir. Demak, ishsizlik bilan bog'liq kambag'allikni bartaraf etishning asosiy yechimi ishsizlarni bandlikni ta'minlash choralarini qo'rishdir.

Aholi bandligini ta'minlashda rasmiy sektor bilan norasmiy sektorning ahamiyatini ham inkor etib bo'lmaydi, chunki u rasmiy sektor etarli ma'lumotga ega bo'lmagan, ishga joylasha olmaganlar uchun ish o'rinlarini yaratadi. Norasmiy sektorda ish haqi rasmiy sektor maoshidan past bo'lsa-da, bu tizim ishsizlarni ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda ishsizlarni kasb-hunarga o'qish orqali xizmat ko'rsatishni turli sohalarida bandligini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://blogs.worldbank.org/opendata/march-2023-global-poverty-update-world-bank-challenge-estimating-poverty-pandemic>.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – 146 б.
3. Garcia JLS, Ruiz SP. Development of capabilities from the innovation of the perspective of poverty and disability. *J Innov Knowl.* 2017;2(2): – p.74-86. <https://doi.org/10.1016/j.jik.2017.03.0050>.
4. Feagin J.R. (1972). Poverty: We still believe that God helps those who help themselves. *Psychology Today*, rr. – P.101–129.

5. Van Oorschot W., Halman L. (2000). Blame or fate, individual or social? An international comparison of popular explanations of poverty. *European Societies*, 2 (1). – P.1–28.
6. Jordan, Gregory (2004). The Causes of Poverty Cultural vs. Structural: Can There Be a Synthesis? *Perspectives in Public Affairs* (Spring): – P.18–34. <https://www.asu.edu/mpa/Jordan.pdf>, as of January 14, 2019.
7. Rank, M. (2001). The effect of poverty on America’s families: Assessing our research knowledge. *Journal of Family Issues*, 22 (7). – P.882.
8. Bessis S. (1995). From social exclusion to social cohesion: Towards a policy agenda. Retrieved from www.unesco.org/most/besseng.htm.
9. Niemelä, M. (2008). Perceptions of the Causes of Poverty in Finland. *Acta Sociologica*, 51(1). – P.23-40.
10. Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 11 фоизга қисқарди. <https://gov.uz/uz/bv/news/view/5337/>
11. Jensen C., Petersen M.B. (2017). The deservingness heuristic and the politics of health care. *American Journal of Political Science*, 61(1). – p. 68-83.
12. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Фуқаролар учун бюджет: 2023 йил учун тасдиқланган бюджет” ахборот нашри. – Тошкент, 2023. – Б.16. <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fa2342ea7aedb354fc8d0e68ef66a017>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000